


MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№6

2025
IYUN



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

OPEN
ACCESS

ULRICH'S WEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛЯЛ

TDIU
TOŠKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
1931



SIMON KARIMOV NOMIDDI
TOŠKENT DAVLAT TEKHNIKA UNIVERSITETI
1955

TOŠKENT DAVLAT
TRANSPORT UNIVERSITETI
1955

TJU
TOSHKENT DAVLAT
ARHITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

TJU
TOSHKENT KIYOG - TEKNOLOGIYA
UNIVERSITETI
1991

TJU
TOSHKENT KIYOG - TEKNOLOGIYA
UNIVERSITETI
1991



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabeck Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbanov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyedtinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer ustti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyoziy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'ssatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati" ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-teknologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Ways to Strengthen the Economy of Karakalpakstan	12
Isakov Janabay Yakypbayevich	
Sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xavf-xatarlarini iqtisodiy baholash.....	18
Raxmatova M.G., Saidjonova Z.B	
Strategy For Attracting Investments By Expanding the Participation of Joint-Stock Companies in the Securities Market	23
Aytmuratova Ulbike Jalgasovna, Kutlymurat Zhalgasovich Aytmuratov, Raushan Nurlybay qizi Umirzakova	
O'zbekistonda eksportni sug'ortalash mexanizmlari: mavjud holat va takomillashtirish yo'llari	29
D.E.Qarshiev	
Ta'lim, ekologiya va raqamlashtirish sohalarida bolalar va o'smirlar turizmini integratsiyalash: xalqaro tajribalar va O'zbekiston	35
Islomova Dilrabo Salomovna	
Oliy ta'lim muassasalarida xodimlarning mehnat samaradorligini oshirishda rahbarlarning roli	40
Reyimberdiyev Baburbek Adilbek o'g'li, Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'gli, Xaitbayev Jasurbek Otaxanovich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Обзор по теме Современные системы управлением возбуждение синхронных машин и перспективы их развития	47
Алиев Аброр Мураткулович	
The Mechanism for Applying Tax Benefits and Preferences in Tax Administration	52
Dilorom Mutalova	
Innovatsiyalarning ahamiyati va ularning iqtisodiy samaradorligining o'zbekiston qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlashdagi roli	57
Raximov Baxromjon Ibroximovich, Solohiddinov Nuriddin Sirojiddin o'g'li	
Bino va inshootlarni zilzilabardoshligiga oid nazariyalar.....	62
Jalilov Ahmadbek Ikromjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini konseptual asoslari va shartlari asoslari xususida	66
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	
The Analysis of the Psychophysiological Condition of Children With Mental Disorders and the Creation of Comfort Through Designed Clothing	73
Asatilaeva Lola Muratjon qizi, Muminova Umida Tokhtasinovna	
Analysis Types of Waterproof Fabrics and Their Physical and Mechanical Properties	80
Pulatova Laziza Bakhodirovna, Kasimova Aziza Bakhodirovna	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	85
Umarkulov Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Suv resurslarini boshqarishda zamonaviy texnologiyalar:qishloq xo'jaligi uchun iims modelini ishlab chiqish.....	89
Fazilat Egamberganova Shuhratovna	
Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish	93
Ernaqulov Sunnatillo Nurali o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalarini boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari	98
Yembergenova Aynur Aydosbaevna	
Mahalliy budjetlar ijrosi to'g'risidagi hisobotlar va ularning axborot imkoniyatlarini oshirish masalalari	104
Abdulaziz Norquchqorov Ziyadullayevich	
Sirdaryo viloyatida investitsion faoliytkni oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi	110
Mamatqulova Muxlisa Komiljon qizi	



Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasi va uni oshirish omillari	115
Umakulov, Kodirjon Maxamadaminovich, To'xtasinov Boburbek Yusufjon o'g'li	
Soliq to'lovchilarning majburiyatlari bajarilishini ta'minlashning gnoseologik asoslari xususida	118
Abdusherozov Abdullo Baxtiyorovich	
Nodavlat oliy ta'lif tashkilotlari faoliyatini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy jihatlari	125
Yaqubova Nodira Olim qizi	
O'zbekistonda to'qimachilik eko-mahsulotlari bozorining rivojlanish imkoniyatlari	130
Nosirova Charos	
Uy-joy fondini boshqarish samaradorligini oshirishda zamonaviy sifat menejmenti tizimining o'rni	135
Asadullina Nailiya Ramilevna, Normurodov Sarvar Norboy o'g'li	
Axoli daromadlarining turmush farovonligiga ta'siri	142
Berdibekov A.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitda ta'lif xizmati sifatini oshirishni ekonometrik modellashtirish usullari	148
Axmedova Barno Abdiyevna	
Jahon mamlakatlarida chakana savdoni boshqarishning o'ziga xosligi va unda strategik menejment tizimi	151
Yaqubov Azizbek G'anibekovich	
Kichik tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	156
Amonov Mehriddin Oromiddinovich	
Geologiya korxonalarining investitsion samaradorligini oshirish yo'llari	163
O'tamurodova Surayyo SHokirjon qizi	
Temir yo'l transportini rivojlantirishdagi xorij tajribasi	169
Nasrullahov Nurbek Baxtiyarovich	
Hududlar iqtisodiyoti agrar sektori investitsion faolligining ko'rsatkichlar tizimi va ularning xususiyatlari	174
S.J. Yangiboev	
Hududlarning soliq salohiyatini oshirishdagi mavjud muammolar va ularning yechimlari	181
Sharipov Narzullo G'ulomovich	
Uzoq muddatli aktivlar auditining tashkiliy va uslubiy jihatlarini takomillashtirish	188
Bakayev Xurshid Maxmudovich	
Применение искусственного интеллекта в оценке кредитных рисков.....	195
Маликов Шохрух Шокирович, Нельматова Фарангиз Санжар кизи, Омонов Санжар Фанишер ўғли, Гулмуродова Динора Акрам кизи, Камалов Шухрат Камалович	
Tashqi bozorlarda tovarlarning raqobatbardoshligini oshirishda zamonaviy marketingdan foydalanish ...	209
Meliqulov Abdurahim Norinovich	
Tijorat banklari investitsiya faoliyatida yuzaga keluvchi risklar	215
Jo'rayev O'ktam Panji o'g'li	
Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda xalqaro savdo shartnomalarining roli.....	219
Xodjayev Jamshid Abduxakimovich	
Servislashgan jamiyatda avtoservis xizmatlarining o'rni va ahamiyatini yoritishga qaratilgan ilmiy yondashuvlar	223
Shaymardanova Dildora Xaydarjon qizi	
Davlat budgetining ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi o'rni	230
Qo'ziyev Shodiyor Qilichboy o'g'li	
Madaniy festivallar-turizmni rivojlantirish vositasi sifatida	234
Xushnazarova Maxzuna Gulamjanova	
Xizmatlar sohasida innovatsion strategiyani shakllantirishning o'ziga xos jihatlari	239
Jamshid Abduxaliqovich Xolboyev	



XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION STRATEGIYANI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

UDK 338.46

Jamshid Abduxaliqovich Xolboyev

"Ipak yo'lli" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi

<https://orcid.org/0009-0002-9105-5797>

Annotatsiya: Maqlada xizmatlar sohasida innovatsion faoliyatning strategik maqsadlari, innovatsion strategiyalarning tasniflanishi hamda ularni boshqarishga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan. Xizmat ko'rsatish korxonalarini faoliyatida innovatsion strategiyani ishlab chiqishda iste'molni xaridor nuqtayi nazaridan maksimal darajada qondirish, strategik rejalahtirish va prognozlashtirish, faoliyatning tezkorligini ta'minlash, raqobat qoidalarining o'zgarishiga moslashish, strategik maqsadlarni to'g'ri belgilash, hamkorlik aloqalarini mustahkamlash hamda kutilmagan vaziyatlardan samarali foydalanish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: xizmatlar sohasi, innovatsion faoliyat, innovatsion strategiya, innovatsiyalar diffuziyasi, raqobatbardoshlik, giperraqobat.

Abstract: The article outlines strategic goals, classification of innovative strategies in the service sector, management of innovation strategies and the factors influencing them. The necessity of achieving the highest customer satisfaction from the point of view of the buyer, strategic planning and forecasting, ensuring business dynamics, changing competition rules, setting strategic goals correctly, supporting strategic cooperation and using unforeseen circumstances when developing an innovative strategy in the activities of service enterprises is substantiated.

Keywords: service sector, innovation activity, innovation strategy, diffusion of innovations, competitiveness, hypercompetition.

Аннотация: Статье изложены стратегические цели, классификация инновационных стратегий в сфере услуг, управление инновационными стратегиями и факторы, влияющие на них. Обоснованы необходимость достижения наивысшей удовлетворенности потребителей с точки зрения покупателя, стратегического планирования и прогнозирования, обеспечения динамики деятельности, изменения правил конкуренции, правильной постановки стратегических целей, поддержки стратегического сотрудничества и использования непредвиденных обстоятельств при разработке инновационной стратегии в деятельности предприятий сферы услуг.

Ключевые слова: сфера услуг, инновационная деятельность, инновационная стратегия, диффузия инноваций, конкурентоспособность, гиперконкуренция.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish sohasining o'rni va ahamiyati, avvalo, ushbu sohada milliy iqtisodiyot o'sishining asosiy omillari — yangi ilmiy bilimlar, intellektual kapital, ilmiy ishlasmalar, raqamli texnologiyalar, konsalting xizmatlari va boshqa zamonaviy yo'nalishlarning shakllanishi bilan izohlanadi. Shu bois iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va aholining hayot sifatini yaxshilashda xizmat ko'rsatish sohasida keng ko'lamli ilmiy-texnik, sifat va tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish dolzarb va hal qiluvchi ahamiyatga ega masala hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2030-yilgacha bo'lgan strategiyasida [1] milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlovchi zarur shart sifatida an'anaviy ishlab chiqarishga yo'naltirilgan iqtisodiyotdan innovatsion yo'nalishdagi iqtisodiyotga o'tish, shu yo'nalishda inson salohiyatini rivojlantirish, zamonaviy xizmat turlarini kengaytirish va innovatsion taraqqiyotning yangi mexanizmlarini shakllantirish belgilangan. Bu esa soha korxonalarining innovatsion strategiyasini shakllantirish dolzarbligini ta'minlaydi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARI

Innovatsion strategiya tushunchasining xalqaro amaliyotdagi nazariy mohiyati Oslo konferensiysi xalqaro standarti [2] ga ko'ra "innovatsion faoliyatning bozorga kiritilgan yangi yoki takomillashgan tovar, texnologik jarayon yoki ijtimoiy xizmatlarga yangicha yondashuv sifatidagi yakuniy natijasi" sifatida talqin etilgan.

Xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy asarlarida esa innovatsion strategiya atamasiga yanada kengroq izohlar berilgan. Jumladan, I. Ansoff innovatsion strategiyani "...tashkilotda qaror qabul qilish va tashkiliy xatti-harakatlarni amalga oshirishning yangi tamoyillari va qoidalarini majmui" [3] deb ta'riflagan.

P. Druker uni "...biznes strategiyasini ishlab chiqish metodikasi" [4] sifatida, K. K. Praxalad esa "...biznes tuzilmasi va modelining iste'molchilar, hamkorlar hamda raqobatbardoshlik nuqtasi nazaridan yangicha strategik timsoli" [5] deb izohlagan.

Mamlakatimiz olimlaridan Sh. J. Ergashxodjayevaning ilmiy tadqiqotlarida innovatsion jarayonlar tovar va xizmatlarni siljitchuning muqobil marketing strategiyalarini ishlab chiqish, yangi mahsulotlarni yaratish va ularni bozorga kiritish orqali bozor segmentlarini o'zlashtirishda hali qo'llanilmagan usullardan foydalanish sifatida izohlangan [6].

K. M. Ibodovning ilmiy-uslubiy ishlarida esa innovatsion salohiyatni belgilovchi omillar va ularni baholash amaliyoti restoran xizmatlari misolida tadqiq etilgan. Unda innovatsiya "...faoliyatning iste'molchilar ehtiyojlarini (ijtimoiy, madaniy, iste'mol, sanitariya-gigiyenik, event-marketing, event-management va boshqalar) samarali qondirishga imkon beruvchi yakuniy natija (servis mahsuloti, texnologiya yoki uning ayrim takomillashgan elementlari, servis faoliyatining yangidan tashkil qilinishi va boshqalar)" sifatida ta'riflangan [7].

A. A. Siddiqovning ilmiy ishlarida esa innovatsion strategiyani ishlab chiqish masalasi umumiyoq ovqatlanish korxonalari misolida o'rjanilgan bo'lib, bu strategiyaning mijozlar bilan ishlash hamda tashqi bozorlar bilan alo-qalarni rivojlantirishga xizmat qilishi qayd etilgan. Jumladan, "...bir vaqtning o'zida 2–3 ta quyi strategiyani ham ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Ishbilammonlik strategiyasi innovatsion jarayonlarning umumiyligi tamoyillarini belgilashga xizmat qiladi. Funksional strategiya esa sohaga turdosh boshqa tarmoqlarning rivojlanish va hamkorlik munosabatlarini yo'naltirishga qaratiladi" [8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida induktiv va deduktiv usullar, shuningdek mantiqiy tahlil yondashuvlaridan foydalandi. Tadqiqot natijalarini umumiyligi va yaxlit tarzda ifodalash maqsadida grafik jadval hamda vizual tasvirlardan (rasmlardan) foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish sohasini innovatsion komponentlarsiz samarali rivojlantirish imkonsiz. Xizmatlar sohasida innovatsion strategiyalarini shakllantirish nafaqat iqtisodiy subyektlarning rivojlanishi, balki milliy iqtisodiyotning jadal taraqqiyoti uchun ham zaruriy shart hisoblanadi.

Xizmat ko'rsatish sohasidagi innovatsiyalar — yakuniy iste'molchilarining ijtimoiy, iqtisodiy va texnik ehtiyojlarini yuqori darajada qondirish maqsadida yaratilgan yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot va xizmatlar bo'lib, ular milliy iqtisodiyot uchun yangi qo'shimcha qiymat yaratadi.

Innovatsion strategiya xizmat ko'rsatish korxonasingin bozor mavqeini mustahkamlashga xizmat qiladigan bozor xulq-atvori bo'lib, "...tashqi muhit omillariga javob reaksiyasi hisoblanadi" [9].

Innovatsion strategiyaning asosiy funksiyasi — ilmiy ishlanmalarning uzoq muddatli yo'nalishlarini belgilash, yangiliklarni joriy etish va qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun zarur resurslar bilan ta'minlashdan iborat. Innovatsion jarayon ishtirokchilarining faoliyati davlat tomonidan tartibga solinadi va nazorat qilinadi. Strategiyani tanlash esa davlatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish darajasiga, shuningdek, uning moddiy-texnik va moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganligiga bevosita bog'liq.

Shu nuqtayi nazardan, innovatsion strategiyani nafaqat mahsulot ishlab chiqarish, uni rivojlantirish yoki yangilik kiritish doirasida, balki innovatsion mahsulotlar haqidagi kengroq tushuncha asosida shakllantirish zarur. Xizmat ko'rsatish sohasining innovatsion strategiyasi sohaga joriy etilayotgan innovatsiyalarning xususiyati va tarmoqning o'ziga xos jihatlariga mos holda ishlab chiqiladi. Shunday ekan, bu strategiyalar joriy etilayotgan yo'nalishlarga ko'ra o'ziga xos innovatsion guruhni shakllantirib, innovatsion texnologiyalarini yaratish va joriy etish, xizmatlarni tashkil etish va boshqarishning yangi usullarini qo'llash, raqobat ustunligini ta'minlash, biznes samaradorligini oshirish va xizmatlar sifatini yaxshilashga yo'naltiriladi [10].

Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion strategiyani qo'llash zarurati quyidagi omillar bilan izohlanadi:

Birinchidan, aholi va tadbirkorlik subyektlarining bozor va ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan yuqori texnologik xizmat turlariga bo'lgan talabining tobora ortib borayotganligi.


Ikkinchidan, iste'molchilarining ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatiga bo'lgan talabining uzluksiz ortib borishi.



Uchinchidan, innovatsiyalarning iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va sohalariga keng miqyosda diffuziya-lanishi tufayli xizmat ko'rsatishning turli jahbalarini yangilash zarurati ortib bormoqda [11].

To'rtinchidan, innovatsiyalar diffuziyasining jadallahushi natijasida milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlari va sohalarini mutanosib rivojlantirish ehtiyoji kuchaymoqda.

Beshinchidan, iqtisodiyot rivojlanishining hozirgi bosqichida xizmatlar sohasining "...innovatsion rivojlanishida yuzaga keladigan muammolarni hal qilish, innovatsion faoliyatni kengaytirishning o'ziga xos xususiyatlarini aynan innovatsion strategiyada ko'zda tutish imkoniyati kengroq" deb baholanishi lozim (1-rasm) [12].



1-rasm:Xizmatlar sohasida innovatsion faoliyatning strategik maqsadlari

Manba: muallif ishlanmasi.

Iqtisodiy adabiyotlarda innovatsion strategiyaning turli shakllari keltirilgan bo'lib, ularni tavsiyflashda "...tasnif belgisi, innovatsiya turi, soha xususiyatlari va boshqa ko'plab omillarni inobatga olish lozim bo'ladi" [13].

Quyida xizmatlar sohasida qo'llanilishi mumkin bo'lgan asosiy innovatsion strategiyalar keltiriladi:

- Kirib borish strategiyasi — bozorda yetakchi mavqega erishishni ko'zlovchi strategiya bo'lib, yangiliklarni joriy etish uchun katta hajmdagi xarajatlarni talab qiladi [14].


- Himoya strategiyasi — mavjud bozor mavqeini saqlab qolish va ayrim innovatsiyalarni joriy etish orqali xarajatlarni tejashta yo'naltirilgan strategiya hisoblanadi.

- An'anaviy strategiya — yangiliklarni joriy etishda eng kam xarajat sarflanadigan, asosan faoliyatni barqaror saqlab qolishga yo'naltirilgan strategiyadir.

- Opportunistik strategiya — bozorning bo'sh va nisbatan kam raqobatli segmentlarini egallash maqsadida qisqa muddatli va tezkor qarorlar qabul qilishga asoslanadi.

- Qaramlik strategiyasi — bozordagi mavqeni saqlab qolish uchun innovator kompaniyalar bilan shartnomaga asosida va ularga bog'liq holda faoliyat yuritishni nazarda tutadi.

Ushbu strategiyalar xizmatlar sohasida mavjud resurslar, tashqi muhit holati va bozor vaziyatidan kelib chiqib, alohida yoki bir nechta birgalikda kompleks tarzda qo'llanilishi mumkin (2-rasm).



2-rasm: Xizmatlar sohasida innovatsion strategiyalarning tasniflanishi

Manba: muallif ishlanmasi.

Xizmatlar sohasida innovatsion strategiyalarning quyidagi turlari qiymat yaratish jihatidan samarali hisoblanadi:

– “Ko’chirish” strategiyasi — bu strategiyaning mohiyati xorijiy mamlakatlarda ishlab chiqilgan yuqori samarali ilmiy ishlanmalar, texnologik yutuqlar va litzenziyalarni sotib olish orqali yangi mahsulot va xizmat turlarini yaratishga asoslanadi. Ushbu yondashuv innovatsion jarayonda vaqt va moliyaviy resurslarni tejash, hamda fundamental tadqiqotlar bosqichidan to ishlab chiqarishgacha bo’lgan davr mobaynida ishlab chiqarish imkoniyatlarini mustahkamlashga qaratilgan.

– “O’zlashtirish” strategiyasi — bu strategiya ilgari industrial davlatlarda ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarni arzon ishchi kuchi mavjud bo’lgan hududlarda takror ishlab chiqarishga asoslanadi. Xususan, Xitoy va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bunday yondashuv orqali ilmiy-texnik va ishlab chiqarish salohiyatlarini kengaytirishga erishgan.

– “Yaratish” strategiyasi — asosan yuqori ilmiy-texnik salohiyatga ega korxonalar tomonidan qo’llaniladi. U yangi mahsulotlar, xizmatlar va texnik ishlanmalarini yaratishga qaratilgan bo’lib, AQSH, Angliya, Fransiya, Yaponiya kabi rivojlangan davlatlar tajribasida keng qo’llaniladi. Bu strategiya ilmiy yangiliklarni ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish tizimiga joriy etishga asoslanadi.

Xizmat ko’rsatish korxonalarining innovatsion strategiyasi ularning bozorni pozitsiyalash, faoliyatni diversifikasiyalash yoki ixtisoslashtirish orqali raqobat ustunligini ta’minlash maqsadida ishlab chiqiladi. Shu bois, bozor talablari chuqur tahlil qilinib, mijozlarga jozibador xizmatlar taklif etuvchi innovatsion strategiyalar shakllantiriladi. Bu strategiyalar xizmatlar sohasida samarali harakatlar dasturini aniqlab beradi.

Innovatsion strategiyalar odatda yuqori darajadagi xavf va noaniqlik bilan bog’liq bo’lib, ularni amalga oshirishda ijobji natijalarga erishish ehtimoli ko’p jihatdan tashqi muhitga bog’liq. Soha rivojlanishining yuqori sur’atlari, global lashuv, innovatsion mahsulot va xizmatlarning bozordagi tez integratsiyasi — bularning bar-chasi giperraqobat muhitini shakllantirmoqda. Giperraqobat bu nafaqat bozordagi mavqega erishish uchun kurash, balki xomashyo, tijorat vositachilar, innovatsion ishlanmalar, nou-xau va boshqa resurslar uchun yakka yoki hamkorlikda olib boriladigan kurashni ham anglatadi [15].

Bunday muhitda innovatsion strategiyalarni boshqarish quyidagi omillarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim:



- S1 – xaridor ehtiyojini eng yuqori darajada qondirish (Superior Stakeholder Satisfaction);
- S2 – strategik rejalarshirish va prognozlashtirish (Strategic Soothsaying);
- S3 – tezlik (Speed);
- S4 – raqobat qoidalaringin o'zgarishi (Shifting Rules of Competition);
- S5 – strategik maqsadlar (Strategic Intent);
- S6 – strategik hamkorlik (Strategic Thrusts);
- S7 – kutilmagan vaziyatlardan foydalanish (Surprise).

Giperraqobat quyidagi yo'naliishlarni qamrab oladi:

Narx va sifat bo'yicha raqobat — bozorni egallashda narx siyosati bilan bir qatorda sifatga doir raqobat kuchayadi. Ushbu sharoitda S1 va S3 omillar inobatga olinishi lozim.

O'zgarishlar va nou-xau joriy etish — qisqa vaqt ichida raqobatchilar uchun takrorlab bo'lmaydigan innovatsion mahsulot va xizmatlar yaratish strategik ustunlikni ta'minlaydi. Bunda S2, S3 va S7 omillar muhim ahamiyat kasb etadi.

Raqobatga qarshi choralar ishlab chiqish — bu raqobatchilarga to'siqlar yaratish, ularni bozor segmentidan siqib chiqarish orqali S5 va S6 omillarni harakatga keltiradi.

Moliyaviy resurslardan ustalik bilan foydalanish — yirik kompaniyalar kichik biznes subyektlarini bozor raqobatidan siqib chiqarishi mumkin. Bu holatda S4 va S7 omillarni strategik tarzda hisobga olish zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Innovatsion strategiyalar ko'p bosqichli, dinamik va murakkab xarakterga ega bo'lib, ularning ustunlik jihatlari ko'pincha vaqtinchalik bo'ladi. Xizmatlar sohasi korxonalar uchun innovatsion strategiyani ishlab chiqish — mavjud resurslardan oqilona foydalanish, tashqi muhit omillariga tezkor moslashish va harakat dasturlarini aniqlashtirish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Innovatsion strategiyalarni tanlashda rejalarshirish funksiyasi muhim rol o'ynaydi. U rivojlanish strategiyasiga muvofiq innovatsion faoliyat yo'naliishlarini belgilash, resurslardan foydalanish imkoniyatini aniqlash va strategik maqsadlarga erishish uchun zarur qarorlarni shakllantirishga imkon beradi.

Foydalanimgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining .09.2023 yildagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida" 11 PF-158-son Farmoni.
2. Oslo Manual, Guidelines for collecting and interpreting innovation data, Third edition, 2005. - P. 46-47
3. Ансофф И. Стратегическое управление Текст / И. Ансофф. – Москва: Экономика, 2009. – 331с.
4. Друкер П.Ф. Бизнес и инновации Текст / П.Ф. Друкер. - Москва: Вильямс, 2009. – 292 с.
5. Прахалад К.К. Пространство бизнес-инноваций: создание ценности совместно с потребителем: пер. с англ. Текст / К.К. Прахалад, М.С. Кришнан. – Москва: Альпина Паблишерз: Юрайт, 2011. – 255 с.
6. Эргашходжаева Ш.Д. Инновацион маркетинг. Ўқув қўлланма. –Т.: ТДИУ, Иқтисодиёт, 2014. – 177 бет. 11-13 бб.
7. Ибодов, К. (2022). Ресторан хизматлари соҳасида инновацияларнинг таснифланиши. IQTISODIYOT va TA'LIM, 23(6), 74–79. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/815>.
8. Сиддиков А.А. (2022). Умумий овқатланиш корхоналари инновацион стратегиясини ишлаб чиқишининг услугий жиҳатлари. Экономика и социум, (6-2 (97)), 659-670.
9. Ридель Л.Н., Евсеева С.Е. К вопросу о современных подходах к классификации инновационных стратегий. Вестник Сибирского института бизнеса и информационных технологий. 2019;(2):55-60.
10. Алабугин А.А. Совершенствование методологии управления развитием предприятий сферы услуг // Вестник Южно-Уральского государственного университета. – Серия: Экономика и менеджмент. – № 41 (258). – 2011. – С. 99–105.
11. Маннапов Р. Г. Закономерности, особенности и проблемы развития инновационной деятельности в сфере услуг региона // Региональная экономика: теория и практика. 2012. № 32. С. 2—8
12. Маннапов Р. Г. Организационные аспекты инновационного развития сферы услуг региона // Инновационная деятельность. 2012. № 1. С. 83—88
13. Ридель Л.Н., Евсеева С.Е. К вопросу о современных подходах к классификации инновационных стратегий. Вестник Сибирского института бизнеса и информационных технологий. 2019;(2):55-60.
14. Каточкиев В.М. Инновационные направления развития сферы услуг как фактор экономического роста // Вопросы инновационной экономики. – 2014. – № 1. – С. 14-20. –<http://www.creativeconomy.ru/articles/31947>
15. Ибодов, К. Хизматлар соҳасида инновацион стратегияларни қўллаш имкониятлари// "Обод турмушни таъминлашда иқтисодиётни ва инновацион фаолиятни такомиллаштириш муаммолари" мавзуусидаги республика анъанавий илмий-амалий конференция материаллари, СамИСИ, 2013 йил 20 феврал, 96-98 б.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosinganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosingan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100